**Emro Science and Education**
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

**“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR TAHLILI

TDIU “Byudjet hisobi va g’aznachilik”
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
**MIRZAYEV BOBIR SHAMSIDDINOVICH**

Bugungi kunda yurtimizda kambag‘allikni qisqartirish allaqachon umummilliy harakatga aylanib ulgurdi. O‘tgan yillar davomida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha to‘plangan tajriba va odamlarning ehtiyojidan xulosa qilib, kambag‘allikni qisqartirishni yangi bosqichga olib chiqqan holda ehtiyojmand insonlarning xohishi va imkoniyatini qo‘llab-quvvatlab, hayotga, jamiyatga olib kirish zarurligi hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo‘g‘indagi rahbarlarning kundalik ishi bo‘lishi kerakligi davlat rahbari tomonidan qat’iy qoida sifatida belgilab berildi. Kambag‘allikni qisqartirish masalasiga davlat va jamiyat o‘rtasidagi “ijtimoiy shartnoma” hisoblanmish yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham bir necha marta to‘xtalib o‘tildi.

Xususan, unga davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘rishi bo‘yicha alohida norma kiritildi [1]. Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilinganligi Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yildi [1]. Prezidentimiz tabiri bilan aytganda ijtimoiy davlat bu - eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir [3]. Shuningdek, Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kambag‘allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish bo‘yicha choralar ko‘rishi belgilab qo‘yildi [1].

Mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida ham yaqin kelajak uchun ulkan rejalar qo‘yilgan. Misol uchun, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida respublikamiz hududida 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilgacha esa keskin qisqartirish, kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish kabi nihoyatda muhim marralarga erishish maqsad qilib olindi [4].

Har qanday mamlakatda aholining kam kambag‘al qatlami mavjudligi ma’lum. O‘zbekistonda ham, ayniqsa, qishloq hududlarida, aholining ma’lum bir qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi hech kimga sir emas. Biroq,



Published: 05.06.2026

**Cite this article:** Mirzayev Bobir Shamsiddinovich (2026). O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar tahlili. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/888

*© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

yurtimizda kambag‘allik masalasi uzoq yillar davomida ochiq muhokama qilinmagan mavzulardan biri bo‘lib kelgan. 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llangan Murojaatnomada davlatimiz rahbari bu masala haqida ochiq gapirib, tarixda ilk bor kambag‘allikni qisqartirishni ustuvor vazifa sifatida belgiladi. O‘sha davrdagi dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, aholining 12-15 foizi yoki 4-5 million kishisi kambag‘allik darajasida edi. Bu esa ularning kunlik daromadi atigi 10-13 ming so‘mni tashkil etganini anglatadi [3].

Shu nuqtada Prezidentimiz muhim bir haqqoniy savolni o‘rtaga tashlagandi: bir oilada avtomobil yoki chorva bo‘lishi mumkin, ammo agar oila a’zosidan biri og‘ir kasal bo‘lsa va daromadning kamida 70 foizi uning davolanishiga sarflansa, bunday oilani farovon deb atash mumkinmi? Bu savolning zamirida Prezidentimiz yashash minimumining haqiqiy chegarasini barcha ta’sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda aniq hisob-kitoblar asosida hisoblab chiqish zaruriyati borligini nazarda tutgan edi. Shundan kelib chiqib, Prezidentimiz tomonidan mas’ullarga birinchi bosqichda har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat darajasidagi haqiqiy sharoit va kambag‘allikka oid real ahvolni tahlil qilish kerakligi, ya’ni mahallalardagi daromadi kam oilalar soni haqida ma’lumot yig‘gan holda 2020-yil 1-oktabrgacha tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor va minimal iste’mol savatchasining huquqiy asoslarini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

2020-yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi davrida butun dunyoda bo‘lgani kabi yurtimizda ham sinovli kunlar boshdan kechirildi va aynan shu davrda haqiqatda yordam muhtoj, kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun “temir daftar” joriy etildi hamda sektor rahbarlari tomonidan uyma-uy yurgan holda ro‘yxatga olish tizimi boshlandi. Davlatimiz rahbari videoselektor yig‘ilishlaridan birida asosiy maqsad bu sinovli davrda raqamlar ortidan quvib emas, balki xalqni rozi qilish uchun chin ko‘ngildan ishlagan holda kambag‘al oilaning hech bo‘lmaganda bitta a’zosini ish bilan ta’minlab, ularni muhtojlikdan chiqarish ekani, shuning uchun har bir oila, har bir fuqaroning muammosi bilan alohida shug‘ullanish zarurligini ta’kidlagan edi [5] .

Shunga muvofiq temir daftarga quyidagi toifadagi oilalar kiritildi [6]:

-oilaning mehnatga layoqatsiz nogironlari va surunkali kasallikka chalinganlar;

- yakka-yalg‘iz keksalar, bevalar va o‘zgalar qaramog‘iga muhtojlar;
- 5 va undan ortiq farzandi bor oilalar;
- karantin choralari natijasida daromad manbasini yo‘qotganlar;
- haqiqatda ehtiyojmandlar, nochor va moddiy ko‘makka muhtojlar.

Pandemiya davrida “Temir daftar”ning samaradorligi sababli, bir necha oylardan so‘ng unga qo‘shimcha ravishda “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” ham tashkil etildi. Bu yangi ro‘yxatlar jamiyatda ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordamga muhtoj, shuningdek, bilim va kasb o‘rganishga qiziquvchi ishsiz yoshlar

va xotin-qizlarni o‘z ichiga olgan. Ushbu tashabbus orqali ular bilan maqsadli ravishda ishlash yo‘lga qo‘yilgan.

Kambag‘allikni qisqartirish Xitoy tajribasi asosida olib borildi. Xitoy kambag‘allik ustidan to‘liq g‘alaba qozonganligini e‘lon qilgan birinchi mamlakat hisoblanadi. 2023-yildan boshlab, ushbu tajribani o‘rganish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida mamlakatimiz delegatsiyasi bir necha marta Xitoyga xizmat safariga yuborildi. Xitoy tajribasidan kelib chiqqan holda, har bir viloyatda bittadan tumanda kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha alohida dastur amalga oshirilishi belgilandi.

Shuningdek, Xitoylik amaliyotchi olimlar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida maslahatchi sifatida faoliyat yuritishni boshladilar. 2023-yildan boshlab kambag‘allikni qisqartirishga soliq siyosati orqali ta’sir etish mexanizmlari ishlab chiqildi. Jumladan hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, davlat ko‘magini berish tartibini takomillashtirish maqsadida respublika tuman va shaharlarini 5 ta toifaga ajratildi. 4-5-toifadagi tumanlarda ro‘yxatdan o‘tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlariga foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, ijtimoiy soliq, yer va mol-mulk soliqlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliq bo‘yicha ko‘plab tabaqlashgan soliq imtiyozlari taqdim etildi.

Biz yuqorida mamlakatimizda o‘tgan yillar mobaynida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlarni yillar kesimida to‘liq ko‘rsatishga harakat qildik. Umuman olganda so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda ulkan islohotlar amalga oshirildi deb bemalol aytishimiz mumkin. Dastlab sektor tizimi, so‘nggra mahallabay ishlash tizimi orqali rahbarlarning respublikadan mahallalarga tushib, uyma-uy yurgan holda aholi muammolarini hal etishga barcha tashkilotlar jalb qilindi.

Mahallada kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so‘m arzon kredit, 7 trillion so‘m subsidiya berildi. Mahallalarni obod qilish, bog‘cha, maktab, tibbiyot, yo‘l, suv va elektr infratuzilmasi uchun 120 trillion so‘m ajratildi. Shuningdek, 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik qilib, daromad topishi uchun tarqatildi.62 Minimal iste’mol xarajatlarining huquqiy asosi yaratilib, ilk bor kambag‘allik chegarasi e’lon qilindi (2025-yil holatiga kambag‘allik chegarasi 669 ming so‘mni tashkil etadi). Mamlakatimiz tarixida pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini minimal iste’mol xarajatlaridan kam bo‘lmagan darajaga olib chiqildi. Kambag‘allik darajasini 23 foizdan 11 foizga tushirishga erishildi [6].

Kambag‘allik darajasi yurtimizda yildan-yilga kamayib bormoqda. Olib borilayotgan islohotlar natijasida nasib etsa mamlakatimiz kambag‘allikdan holi hududga aylanadi. Shu munosabat bilan kelgusida aholini kambag‘allik chegarasidan pastga tushib qolgandan so‘ng ularni bu toifadan chiqarishga emas,

balki ushbu chegaraga kirmasligi uchun oldindan tizimli yondashuvlarni yo‘lga qo‘yishimiz muhim hisoblanadi. Bunda ta’lim sifatini oshirish, qishloq joylarida yerdan unumli foydalanish darajasini oshirish va eng muhimi fiskal vositalarni qo‘llashimiz zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-93-son farmoni

5. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Minimal iste’mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 544-son qarori

6. Xaydarov A.A. O‘zbekiston respublikasida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar tahlili. “Innovations in Science and Technologies” илмий-электрон журнали ISSN: 3030-3451. 2025 y.

7. Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta’minlash// Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2018. - 275 b

STATISTIKA KAFEDRASI
— Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

# INKLYUZIV TA’LIMNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA METODOLOGIK ASOSLARI

TDIU “Iqtisodiyot nazariyasi”
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
**XAMRAQULOV AKROMJON ADAXAMJON O‘G‘LI**

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxsda mehr olish, doim e‘tiborda bo‘lish, atrof muhitdagi turli ta’sirlardan himoyalanish istagi, shaxsiylik faoliyatini ruhlantirish va mehr muhabat kabi ehtiyojlarga doimo asosiy ehtiyojlar qatoriga kirgan. Turli nogironligi bo‘lgan insonlar ham bundan hissiyotlarga ehtiyoj sezadilar. Bu kabi xususiyatlardan tashqari ularning o‘ziga xos xususiyatlari va alohida shaxsiy ehtiyojlari ham mavjud bo‘ladi.

Shaxsning psixologik xatti-harakati, qiziqishi, qobiliyati va boshqa bir qator jihatlari ham anamaliyalari o‘xshash bo‘lgan jihatlarda ham ularning bu kabi xususiyatlari farq qilishiga ko‘p bora guvoh bo‘lganmiz. Inklyuziv ta’limning barcha ishtirokchilarini psixologikpedagogik qo‘llab quvvatlashni samarali tashkil etish g‘oyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi [4]:

- inklyuziv ta’limni umumta’lim muassasalarining amaliy faoliyatida rejalashtirish va amalga oshirish uchun asos sifatida qo‘llab-quvvatlashning xilma xilligini hisobga olish;
- o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bosqichlarni aniqlash asosida qo‘llab-quvvatlash jarayonini yaratish: strategiyalar, taktikalar va texnikalar;
- yuqorida qayd etilgan ta’lim muassasalari uchun aniq texnologiyalar, mos uslub, yo‘l va vositalarni ishlab chiqish;
- ta’lim muassasalarining integratsion faoliyatini rivojlantirish sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash jarayonini takomillashtirilib boriladi. Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me’yorlari ishlab chiqilgan. “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi